

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetida “Ma’rifat maydoni” doirasida o’tkazilgan buyuk siymolar Alisher Navoiy tavalludining 585-yilligi va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 543 yilligi munosabati bilan **“Navoiy ijodida komil inson tarbiyasi”, “Bobur kabi sevgin Vatanni”** nomli tashkil etilgan tadbir

B A Y O N N O M A S I

2026-yil 10 fevral

ATB

Mamlakatimizda amalga oshiralayotgan keng ko’lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta’minlash, talaba-yoshlarni ezgu maqsadlarga ilhomlantirish, adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish, ajdodlar merosini o’rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish hamda talabalar-yoshlar o’rtasida atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng targ’ib qilish, ularning adabiyotga qiziqishlarini yanada oshirish, ularga o’z iqtidorlarini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish hamda ularni rag’batlantirish maqsadida

2026-yil 10-fevral kuni “Ma’rifat maydoni” ma’naviy-ma’rifiy loyihasi doirasida buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 543 yilligi munosabati bilan “Navoiy ijodida komil inson tarbiyasi”, “Bobur kabi sevgin Vatanni” mavzularida badiiy kecha tashkil etildi.

Tadbirni TXVU Yoshlar masalalari va MMIB birinchi prorektori N.Kadirov kirish so’zi bilan ochib, unda buyuk ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi, ularning ilm-fan, adabiyot va davlat boshqaruvidagi o’rni haqida alohida ta’kidlab o’tdi. Ayniqsa, Navoiy ijodida komil inson g’oyasi, insoniylik, mehr-oqibat, adolat va vatanparvarlik tushunchalari keng yoritdi.

Talabalar tomonidan Navoiy g’azal va ruboiylaridan namunalar ifodali o’qildi, “Navoiy va Guli” dialogi asosida sahna ko’rinishlari namoyish etildi. Shuningdek, Boburning hayoti va ijodiga bag’ishlangan chiqishlarda uning Vatanga bo’lgan cheksiz muhabbati, jasorati va yuksak insoniy fazilatlarini madh etildi. “Bobur kabi sevgin Vatanni” shiori ostida yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg’usini mustahkamlashga qaratilgan fikr-mulohazalar bildirildi.

Tadbir davomida ishtirokchilar buyuk siymolar merosining bugungi yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati haqida fikr almashdilar. Kecha ko’tarinki ruhda, mazmunli va ta’sirchan tarzda o’tdi.


Yakunda tadbir tashkilotchilari tomonidan bunday ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar yoshlar ongida milliy qadriyatlarga hurmat, ajdodlar merosiga sadoqat va Vatanga muhabbat tuyg’ularini yanada mustahkamlashga ishonch bildirildi.

Tadbir davomida kitob yarmarkasi hamda talabalar tomonidan hayriya yarmarkasi tashkil etildi. Ushbu tadbirga 1500 nafar talaba yoshlar jalb etildilar.

Tadbir yakunida Yoshlar masalalari va MMIB birinchi prorektor Nizomjon Kadirov barcha ishtirokchilarga o’z minnatdorligini bildirdilar va esdalik sovg’alarini taqdim etdilar.









**Yoshlar masalalari va MMIB
birinchi prorektor:**

N.Kadirov

Universitet katta tyutori:

F.Ismagilova